UDK: 81’42:811.512.133:811.111

INSON ICHKI DUNYOSINI IFODALOVCHI BAXT, MUHABBAT VA DO‘STLIK KONSEPTLARINING QIYOSIY LINGVOMADANIY TALQINI

Turdiyeva Nilufar Yokubovna
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
Telefon: +998 94 471 00 82;
e-mail: nilufarturdiyeva0082@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20626588

Annotatsiya. Maqolada inson ichki dunyosini ifodalovchi baxt, muhabbat va do‘stlik konseptlari o‘zbek hamda ingliz tillari materiallari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur konseptlarning lingvokognitiv mohiyati, leksik-semantik maydoni, paremiologik ifodasi va badiiy matndagi voqelanish xususiyatlari yoritiladi. Natijalar ushbu konseptlarning universal mazmun bilan birga milliy-madaniy xususiyatlarga ham ega ekanini ko‘rsatadi.
Kalit so‘zlar: konsept, kognitiv lingvistika, baxt, muhabbat, do‘stlik, paremiologiya, lingvomadaniyat, badiiy matn, metafora.

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ СЧАСТЬЕ ЛЮБОВЬ И ДРУЖБА РЕПРЕЗЕНТИРУЮЩИХ ВНУТРЕННИЙ МИР ЧЕЛОВЕКА

Аннотация. В статье анализируются концепты счастье, любовь и дружба, репрезентирующие внутренний мир человека, на материале узбекского и английского языков. Рассматриваются их лингвокогнитивная сущность, лексико-семантическое поле, паремиологическое выражение и особенности реализации в художественном тексте. Результаты показывают, что данные концепты объединяют универсальное содержание и национально-культурную специфику.
Ключевые слова: концепт, когнитивная лингвистика, счастье, любовь, дружба, паремиология, лингвокультура, художественный текст, метафора.

COMPARATIVE LINGUOCULTURAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS HAPPINESS LOVE AND FRIENDSHIP REPRESENTING THE HUMAN INNER WORLD

Abstract. The article analyzes the concepts of happiness, love and friendship representing the human inner world on the material of Uzbek and English. The study discusses their linguocognitive nature, lexical-semantic field, paremiological expression and realization in literary texts. The results show that these concepts combine universal human content with national and cultural specificity.

Keywords: concept, cognitive linguistics, happiness, love, friendship, paremiology, linguoculture, literary text, metaphor.

Kirish

So‘nggi yillarda nazariy tilshunoslikda inson tafakkuri, emotsional tajribasi va milliy-madaniy xotirasini til birliklari orqali o‘rganishga bo‘lgan qiziqish kuchaydi. Kognitiv lingvistika tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki inson ongida shakllangan bilim, baho, obraz va qadriyatlarni aks ettiruvchi murakkab tizim sifatida talqin qiladi. Shu jihatdan inson ichki dunyosini ifodalovchi baxt, muhabbat va do‘stlik konseptlari lingvokognitiv hamda lingvomadaniy tahlil uchun muhim material hisoblanadi.

Konsept lotincha conceptus so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “tushuncha” ma’nosini bildiradi. Biroq zamonaviy tilshunoslikda konsept oddiy tushunchadan kengroq hodisa sifatida qaraladi: u muayyan narsa-hodisa haqidagi bilimlar, assotsiatsiyalar, emotsional baholar va madaniy tajribani jamlaydi [1, p. 361–364]. Shu sababli konseptning tildagi ifodasi nafaqat lug‘aviy, balki qadriyatli va obrazli mazmunga ham ega bo‘ladi.

Inson ichki olami konseptlarini tadqiq etishda baxt, muhabbat va do‘stlik birliklari alohida ahamiyat kasb etadi. Oldingi tadqiqotlarda ham inson ichki dunyosini ifodalovchi konseptlarning ingliz lingvomadaniyatidagi o‘ziga xosliklari, ularning emotsional va aksiologik qatlamlari alohida qayd etilgan [12, p. 670]. Mazkur maqolaning maqsadi ushbu uch konseptni o‘zbek va ingliz tillari materiallari asosida qiyosiy-lingvomadaniy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish, ularning universal va milliy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Muammoning qo‘yilishi va tadqiqot metodlari

Baxt, muhabbat va do‘stlik konseptlari bir-biridan mustaqil ko‘rinsa-da, ular insonning ichki ruhiy holati, ijtimoiy munosabati va axloqiy qadriyatlarini ifodalovchi yagona konseptual maydonda tutashadi. Muhabbat shaxsning hissiy va ruhiy bog‘lanishini, do‘stlik ijtimoiy-ishonchli munosabatni, baxt esa hayotdan qoniqish, omad, taqdir va saodat haqidagi tasavvurlarni ifodalaydi. Shuning uchun ushbu konseptlarni alohida emas, o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish inson ichki dunyosining lisoniy manzarasini to‘liqroq ochishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda lingvokognitiv, lingvomadaniy, qiyosiy-semantik va paremiologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Lingvokognitiv tahlil konseptlarning ongdagi mazmun qatlamlarini aniqlashga, lingvomadaniy yondashuv esa ularning milliy qadriyatlar bilan bog‘liq tomonlarini ko‘rsatishga xizmat qildi. Qiyosiy-semantik tahlil o‘zbek va ingliz tillaridagi leksik birliklar mazmunini solishtirishga, paremiologik tahlil esa maqollar orqali konseptlarning barqaror madaniy talqinini aniqlashga yo‘naltirildi.

Muhabbat konseptining lingvokognitiv va lingvomadaniy talqini

Muhabbat konsepti inson ongi bilan bog‘liq ravishda yuzaga chiqadigan empirik tuyg‘ulardan biridir. Tuyg‘u shaxsning muayyan obyekt yoki hodisaga subyektiv baholovchi munosabatini ifodalaydi. O‘zbek tilida muhabbat, sevgi, ishq, mehr, qalb, ko‘ngil, dil va yurak birliklari bir semantik maydonni hosil qiladi. Biroq bu birliklarning uslubiy va madaniy vazifasi bir xil emas. Muhabbat umumiyroq va nisbatan neytral ifoda bo‘lsa, ishq kuchli ruhiy-intensiv kechinmani bildiradi; mehr esa yaqinlik, g‘amxo‘rlik va insoniy iliqlikni anglatadi.

Muhabbat konseptini uch asosiy talqinda ko‘rish mumkin: kundalik-sodda, umumiy-falsafiy va badiiy talqin. Kundalik talqinda muhabbat “sog‘inchli salom”, “jonim”, “yurak amri” kabi

birliklar orqali ifodalanadi. Umumiy-falsafiy talqinda u inson hayotining ma’naviy asoslaridan biri, qalb holati va shaxslararo munosabatni boshqaruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Badiiy talqinda esa muhabbat obraz, metafora, ramz va poetik ifoda orqali estetik mazmun kasb etadi.

Abdulla Qahhorning “Muhabbat” qissasi misolida muhabbat shaxsning ichki o‘zgarishi, ruhiy yaqinlashuvi va axloqiy mas’uliyatni anglash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Qissadagi quyidagi ifoda ruhiy muhabbatning fidoyilik darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatadi:

Anvar Muhayyoni bag‘riga bosib jonini berguday bo‘lar edi [4, p. 248].

Mazkur misolda “bag‘riga bosmoq” va “jonini bermoq” birliklari muhabbatning oddiy hissiy mayl emas, balki ichki fidoyilik va ruhiy bog‘lanish ekanini ifodalaydi. Muhabbatning metaforik talqini esa quyidagi parchada yanada ravshanlashadi:

Muhabbat chaqmoqday ko‘ngildagi har qanday qora bulutni ham tilka-pora qiladi [4, p. 248].

Bu o‘rinda muhabbat yorug‘lik, ichki poklanish va ruhiy yangilanish ramzi sifatida tasvirlanadi. Demak, o‘zbek badiiy matnida muhabbat konsepti nafaqat individual tuyg‘u, balki ma’naviy o‘sish va insoniy yetilish jarayoni bilan ham bog‘liq holda voqelanadi.

Baxt va happiness konseptlarining qiyosiy semantik maydoni

Baxt konsepti lingvomadaniyatda dominant birliklardan biri hisoblanadi. O‘zbek tilida baxt, ingliz tilida esa happiness yadroviy leksema sifatida xizmat qiladi. Ingliz tilidagi happiness ko‘proq inner satisfaction, joy, gladness, delight, contentment kabi ichki qoniqish va xursandlik holatlari bilan bog‘liq. O‘zbek tilidagi baxt esa ichki holat bilan bir qatorda taqdir, omad, saodat, tole, iqbol, nasiba va hayotiy muvaffaqiyat kabi tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi.

Etimologik jihatdan ingliz tilidagi happiness o‘rta ingliz davridagi hap komponenti bilan bog‘lanadi; bu komponent chance va luck ma’nolarini bildirgan [7, p. 3]. Shu bois happiness semantikasida tasodif, omad va qulay vaziyat bilan aloqadorlik saqlanib qolgan. O‘zbek tilida esa baxt so‘zining tarixiy-madaniy talqinida ulush, qismat, peshana va taqdir ma’nolari muhim o‘rin tutadi. Bu holat ikki tildagi konseptual farqni ko‘rsatadi: ingliz tilida baxt ko‘proq psixologik qoniqish, o‘zbek tilida esa shaxsiy qoniqish bilan birga hayot yo‘li va nasiba haqidagi tasavvur bilan ham bog‘liq.

Ingliz lingvomadaniyatida inson ichki dunyosini ifodalovchi konseptlar ko‘pincha shaxsiy tajriba, individual tanlov va ichki baholash mexanizmlari orqali talqin qilinadi [13, p. 390]. O‘zbek tilida esa baxt konsepti oilaviy, ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlar bilan kuchliroq bog‘langan. Quyidagi badiiy misolda baxtning hayotdan qoniqish va tabiat bilan uyg‘un yashash mazmuni ko‘rinadi:

Ona-yer nafasiga, mehriga, in’omlariga to‘yib yashashdan ortiq baxt bormi? [8, p. 178].

Boshqa misolda esa baxt tasodifiy kelgan imkoniyat, omad va nasiba sifatida talqin qilinadi:

Nega boshingga qo‘ngan baxt qushni kaltak olib quvlaysan [9, p. 46].

Bu misollarda baxt konseptining ikki qirrasi namoyon bo‘ladi: birinchisi ruhiy qoniqish va hayotiy to‘kislik, ikkinchisi esa omad va nasiba bilan bog‘liq ramziy talqindir.

Do‘stlik konsepti va paremiologik ifoda

Do‘stlik konsepti insonlar o‘rtasidagi ishonch, yaqinlik, sadoqat va o‘zaro ko‘makka asoslangan ma’naviy munosabatni bildiradi. O‘zbek tilida do‘st, oshna, yor, qadrdon, vafodor do‘st kabi birliklar ushbu konseptning turli semantik qirralarini ifodalaydi. Ingliz tilidagi friend va friendship birliklari ham yaqinlik, ishonch va hurmat asosidagi munosabatni anglatadi. Biroq

o‘zbek lingvomadaniyatida do‘stlik ko‘proq qadrdonlik, vafodorlik va og‘ir kunda sinalish mazmuni bilan kuchliroq bog‘langan.

Do‘stlik konseptining muhabbat va mehr semantik maydoni bilan tutashishi ham e’tiborga loyiq. Badiiy matnlarda yurak, qalb, ko‘ngil va dil birliklari do‘stlikdagi ruhiy yaqinlikni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, “yuragimning bir parchasi uzilib qolgandek bo‘ldi” kabi ifoda yaqin insondan ayrilish, mehr yo‘qotish va ichki bo‘shliq ma’nolarini beradi. Bu holat do‘stlik va muhabbat konseptlari inson ichki dunyosida kesishuvchi tuyg‘ular ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek va ingliz tillarining paremiologik fondida do‘stlik bilan bog‘liq birliklar universal mazmunga ega. Quyidagi maqollar ikki tilda semantik jihatdan yaqin talqin qilinadi:

The best of friends must part – Eng yaxshi do‘stlar ham ajrashmoqlig‘i muqarrar.

A friend to everybody is a friend to nobody – Hammaga do‘st bo‘lgan, hech kimga do‘st bo‘lmaydi.

Friendship is not to be bought at a fair – Do‘stlikni bozordan sotib olib bo‘lmaydi.

Ushbu paremiyalar do‘stlikning tanlov, samimiyat, manfaatdan ustun turish va sadoqat bilan bog‘liq qadriyat sifatida talqin qilinishini ko‘rsatadi. Ingliz tilida friendship ko‘proq shaxsiy tanlov va individual hurmat bilan bog‘lansa, o‘zbek tilida do‘stlik ruhiy yaqinlik, vafodorlik va axloqiy majburiyat sifatida kuchliroq ifodalanadi.

Muhokama

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, baxt, muhabbat va do‘stlik konseptlari inson ichki dunyosini ifodalovchi o‘zaro aloqador birliklardir. Muhabbat qalb, ko‘ngil, yurak va mehr orqali ruhiy bog‘lanishni aks ettiradi; do‘stlik ishonch, sadoqat va axloqiy yaqinlikni ifodalaydi; baxt esa qoniqish, omad, taqdir va hayotiy muvaffaqiyat bilan bog‘liq ko‘p qatlamli mazmunga ega. Bu uch konsept birgalikda shaxsning ichki olami, qadriyati va ijtimoiy munosabatlar tizimini yoritadi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi qiyosiy materiallar konseptlarning universal mohiyati bilan bir qatorda milliy-madaniy talqinlari ham mavjudligini tasdiqlaydi. Ingliz tilida happiness va friendship individual tajriba, ichki qoniqish va shaxsiy tanlovga yaqinroq bo‘lsa, o‘zbek tilida baxt, muhabbat va do‘stlik ko‘proq taqdir, mehr, sadoqat, qalb yaqinligi va ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar bilan bog‘lanadi.

Xulosa

Baxt, muhabbat va do‘stlik konseptlari o‘zbek va ingliz tillarida inson ichki dunyosining muhim lisoniy-ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning har biri universal insoniy tajribani aks ettirsa-da, milliy tafakkur va madaniy qadriyatlar ta’sirida turlicha semantik-pragmatik mazmun kasb etadi. Muhabbat o‘zbek badiiy matnida ruhiy yaqinlik, fidoyilik, mehr va qalb uyg‘onishi bilan bog‘liq holda ifodalanadi. Baxt konsepti ingliz tilida ichki qoniqish va xursandlik holatiga, o‘zbek tilida esa taqdir, omad, saodat va hayotiy muvaffaqiyat tushunchalariga kengroq tayanadi. Do‘stlik konsepti esa har ikkala tilda ishonch va sadoqatni bildirsa-da, o‘zbek lingvomadaniyatida qadrdonlik, vafodorlik va qalb yaqinligi bilan chuqurroq bog‘lanadi.

Shunday qilib, mazkur konseptlarning qiyosiy tahlili inson ichki olami til, madaniyat va badiiy tafakkur kesishgan nuqtada shakllanishini ko‘rsatadi. Bu yondashuv kelgusida emotsional konseptlar, badiiy matn semantikasi va tarjimashunoslik masalalarini kompleks o‘rganish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. To‘xtasinova, N. R. (2021). “Uyat” konsepti tadqiqi. NamDU ilmiy axborotnomasi (Nauchniy vestnik NamGU), 361–364.
2. Collins, W. (1999). The Law and the Lady. Charleston: Biblio Bazaar LLC.
3. Karamatova, K., & Karamatov, X. S. (2000). Proverbs – Maqollar – Пословицы. Toshkent: Mehnat.
4. Qorjovov, A. (2012). Bozor oshxonasidagi qiz. Toshkent: Dizayn-Press.
5. Kaziyev, Z. (2001). Muomala psixologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi.
6. Karasik, V. I., & Sternin, I. A. (Eds.). (2005). Antologiya kontseptov. Vol. 1. Volgograd: Paradigma.
7. Johnson, M. (1993). Moral Imagination: Implications of Cognitive Science for Ethics. Chicago: University of Chicago Press.
8. Safarov, Sh. (2006). Kognitiv tilshunoslik. Jizzax: Sangzor.
9. Safarov, Sh. (2010). “Konsept” hodisasi haqida. Sistem-struktur tilshunoslik muammolari. Samarqand, 185–188.
10. Quinn, N. (1987). Convergent Evidence for a Cultural Model of American Marriage. In D. Holland & N. Quinn (Eds.), Cultural Models in Language and Thought. Cambridge: Cambridge University Press, 173–192.
11. Lakoff, G. (1993). The Contemporary Theory of Metaphor. In A. Ortony (Ed.), Metaphor and Thought. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 202–251.
12. Turdiyeva, N. Y., & Rakhmatullayeva, G. N. (2024). Inson ichki dunyosi konseptlarining ingliz lingvomadaniyatidagi o‘ziga xosliklari. Science and Innovation, 3(Special Issue 19), 669–672.
13. Turdiyeva, N. Yo. (2023). The peculiarities of concepts representing the human inner world in English linguistics. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research, 9(5), 389–393.